UO‘K 94 (575.1)

SOVET HOKIMIYATINING ILK YILLARIDA TURKISTONDA AGRAR SOHADAGI SIYOSAT VA UNING XUSUSIYATLARI

D.R. Ahmedov

Maqolada sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Turkistonda bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan agrar siyosat va uning xususiyatlari o‘rganilgan. “Yer to‘g‘risida”gi dekret va uning Turkistondagi amaliyoti, yirik yer egaligining tugatilishi, xususiy mulklarning natsionalizatsiya qilinishi kabi jarayonlar yoritilgan. Shuningdek, “harbiy kommunizm” davrida dehqon xo‘jaliklariga nisbatan oziq-ovqat razvyorstkasining o‘tkazilishi va uning oqibatlariga doir tahliliy materiallar jamlanib, umumiy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: *agrar siyosat, qishloq xo‘jaligi, “harbiy kommunizm”, oziq-ovqat razvyorstkasi, natsionalizatsiya, oziq-ovqat diktaturasi, natura solig‘i, qishloq xo‘jaligi arteli, kommuna, paxtachilik, ocharchilik, kambag‘allar komiteti.*

В статье рассматривается аграрная политика, проводившаяся большевиками в Туркестане в первые годы Советской власти, и ее особенности. Освещены такие процессы, как «Декрет о земле» и его осуществления в Туркестане, ликвидация крупного землевладения, национализации частной собственности. Также в статье собраны аналитические материалы о проведении продовольственной разверстки в отношении дехканских хозяйств в период «военного коммунизма», порядке и её последствиях, сделаны общие выводы.

Ключевые слова: *аграрная политика, сельское хозяйство, «военный коммунизм», продовольственная разверстка, национализация, продовольственная диктатура, продналог, сельскохозяйственная артель, коммуна, хлопководство, голод, комитет бедноты.*

Sovet hukumatining agrar siyosati asoslari 1917-yil 25–27-oktyabr kunlari bo‘lib o‘tgan Butunrossiya Sovetlarining II syezdida birinchi bor kun tartibiga qo‘yilib, unda “Yer to‘g‘risida”gi dekret qabul qilindi. Bu dekretga ko‘ra, pomeshchik yerlari, cherkov, monastir va shunga o‘xshash muassasalarga tegishli yerlar barcha binolari va qurilmalari bilan birga dehqonlarga foydalanishlari uchun bepul berilishi ko‘rsatildi [1. B. 17]. 1917–1918-yillar davomida Sovet Rossiyasining Yevropa qismida pomeshchik mulklarini musodara qilish va oddiy dehqonlarga berish ishlari asosan yakunlandi. Yerlarning bu tariqa qayta taqsimlanishi natijasida yerdan foydalanish borasida o‘rtahol dehqonlar qatlami qishloqdagi asosiy ijtimoiy toifaga aylana bordi. Bolsheviklar hokimiyati agrar siyosatni amalga oshirishda o‘rtahol dehqonlar qatlamini o‘zining yaqin ittifoqchisi sifatida tanlab, ular manfaatini himoya qilishga harakat qildi. Biroq davom etayotgan fuqarolar urushi davrida sovet hokimiyati tomonidan joriy etilgan favqulodda choralar o‘rtahol dehqonlar qatlamiga ham taalluqli bo‘ldi. Chunonchi, ularga tegishli otlar va chorva hayvonlarining armiya ehtiyojlari uchun olib qo‘yilishi, ulov majburiyati, 10 milliard rubllik favqulodda “inqilobiy soliq” va boshqalar o‘rtahol dehqonlarni ham og‘ir ahvolga solib qo‘ydi. Bu kabi keskin choralar qishloqdagi o‘rtahol dehqonlar qatlamining noroziligiga sabab bo‘ldi, ular ham turli ko‘rinishlarda sovet hokimiyatiga qarshi chiqa boshladilar. Shu boisdan, sovet hukumati qanday qilib bo‘lmasin, qishloqdagi birdan-bir tayanchi bo‘lgan o‘rtahol dehqonlarni o‘z tarafiga og‘dirib olishi zarur edi.

1918-yil 27-yanvarda qabul qilingan “Yerni ijtimoiylashtirish to‘g‘risidagi asosiy qonun”da g‘alla va un mahsulotlariga davlat monopoliyasi o‘rnatilishi rasman tasdiqlandi [1. B. 407–409]. Proletariat diktaturasi o‘ta keskin chora-tadbirlar qo‘llash usuliga asoslangan bo‘lib, g‘alla monopoliyasi shahar va qishloq tadbirkorlariga qarshi qaratildi.

Umuman, “Yerni ijtimoiylashtirish to‘g‘risidagi asosiy qonun”ning qoidalari quyidagilardan iborat edi:

“**1-modda**. Rossiya Federativ Sovet Respublikasi hududida yer, yer osti, suv, o‘rmonlar va tabiatning tirik kuchlariga bo‘lgan barcha xususiy mulkchilik abadiy bekor qilinadi.

2-modda. Yer hech qanday (aniq yoki yashirin) sotib olishlarsiz, bundan buyon barcha mehnatkash xalq foydalanishiga o‘tadi.

3-modda. Yerdan foydalanish huquqi faqat uni o‘z mehnati bilan ishlov beruvchi shaxslarga tegishlidir, ushbu qonunda nazarda tutilgan alohida hollar bundan mustasno.

4-modda. Yerdan foydalanish huquqini kishilarning jinsiga, diniga, millatiga hamda fuqaroligiga qarab cheklash mumkin emas.

5-modda. Yer osti boyliklarini, o‘rmonlarni, suv resurslari va tabiatning jonli kuchlarini tasarruf etish ularning ahamiyatiga qarab, uyezd, guberniya, oblast va federal darajadagi Sovet hokimiyatiga federal hukumat nazorati ostida beriladi. Yer osti boyliklari, o‘rmonlar, suvlar va tabiatning tirik kuchlaridan foydalanish va ularni tasarruf etish tartibi maxsus qonun bilan belgilanadi.

6-modda. Xususiy mulk bo‘lgan barcha jonli va jonsiz qishloq xo‘jaligi jihozlari mehnatsiz xo‘jaliklardan hech qanday sotib olishsiz ularning ahamiyatiga qarab uyezd, guberniya, oblast va federal Sovet yer bo‘limlari tasarrufiga o‘tadi.

... Yerdan foydalanish huquqiga ega bo‘lganlar:

20-modda. Rossiya Sovet Federativ Respublikasi hududida jamoat va shaxsiy ehtiyojlar uchun yer yuzasining alohida maydonlaridan quyidagilar foydalanishi mumkin:

a) Madaniy-ma’rifiy maqsadlarda.

1. Sovet hokimiyati organi timsolida davlat (federal, oblast, guberniya, uyezd, volost va qishloq okrugi, volost va qishloq hokimiyati).

2. Jamoat tashkilotlari (mahalliy sovet organlari nazorati va ruxsati bilan).

b) dehqonchilik uchun.

3. Qishloq xo‘jaligi kommunalari.

4. Qishloq xo‘jaligi hamkorliklari (TOZ).

5. Qishloq jamoalari.

6. Alohida oilalar va shaxslar.

... **22-modda**. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun yerdan foydalanishning quyidagi tartibi belgilanadi:

- birinchi navbatda, yersiz, kambag‘al va kam yerli mahalliy qishloq aholisi va mahalliy qishloq ishchilari (batraklar) teng shartlar bo‘yicha;

- ikkinchidan, yangi kelganlar, ya’ni, yerni ijtimoiylashtirish to‘g‘risidagi qonun e’lon qilinganidan keyin ma’lum bir hududga kelib joylashgan qishloq xo‘jaligi aholisi;

- uchinchidan, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan aholi vakillari mahalliy Sovet hokimiyatining yer bo‘limida ro‘yxatga olish tartibida” [1. B. 407, 409].

1918-yil may oyida Sovet hukumati tomonidan “oziq-ovqat diktaturasi”ning joriy etilishi bilan g‘alla va un mahsulotlari bo‘yicha xususiy savdo taqiqlandi. Bolsheviklar hokimiyati oziq-ovqat diktaturasi munosabati bilan tashkil etilgan kambag‘allar komitetlari va oziq-ovqat bo‘yicha ishchi otryadlari ko‘magida shahar va qishloqlardagi dehqon xo‘jaliklariga tegishli bo‘lgan g‘alla zaxiralarini majburan tortib ola boshladilar. Bu bilan qishloqdagi “quloq” deb atalgan tadbirkorlar qatlamining faoliyatiga qattiq zarba berildi. Ayni paytda, musodara faqat “quloq” xo‘jaliklarigagina emas, g‘alla zaxirasiga ega bo‘lgan o‘rtahol dehqonlarga nisbatan ham tatbiq etildi. Bu kabi xo‘jaliklar qo‘lidagi g‘alla davlat tomonidan belgilangan qat’iy narxlar bo‘yicha majburan sotib olina boshlandi. Ayrim hollarda davlatga belgilangan narxlarda g‘alla topshirgan o‘rtahol dehqonlarga sanoat mollari yetkazib berildi. Aytish mumkinki, g‘alla va oziq-ovqat mahsulotlarini qat’iy narxlar bo‘yicha xarid qilish nafaqat majburlov choralari, balki mahsulot (tovar) ayirboshlash tartibidagi iqtisodiy choralar bilan ham amalga oshirildi [2. B. 57].

Turkiston Kommunistik partiyasining qishloqlarda tashkil etilgan yacheykalarining asosiy vazifalari sifatida dehqonlarni ijtimoiy tabaqalanishga yo‘naltirish, kambag‘al dehqonlarni “boy-quloqlar” ta’siridan himoya qilish, kambag‘allarni boylarga qarshi kurashga uyushtirish, volost va qishloq sovetlarini “yot unsurlar”dan tozalash kabilar belgilandi. Ammo kommunistik partiya tomonidan qabul qilingan sinfiy zo‘ravonlik mafkurasi obyektiv ravishda qishloqda sinfiy adovatning rivojlanishiga, aholining turli ijtimoiy guruhlarini mulkchilik asosida qarama-qarshi qo‘yishga yordam berdi. Bularning barchasi mintaqadagi vaziyatni beqarorlashtirib yubordi [3. B. 41].

Turkiston o‘lka sovetlarining 1918-yil oktyabr oyida bo‘lgan VI syezdida kambag‘allar komitetlari (kombed) rolini oshirishga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilindi [4. B.75–76].

Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komitetining 1918-yil 30-oktyabrdagi “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bir qismini ushlab qolish shaklida qishloq mulkdorlariga natura soliqlarini belgilash to‘g‘risida”gi dekreti oziq-ovqat siyosatini tubdan o‘zgartiradigan biron-bir yangilik kiritmadi. U pul hisobida olinayotgan soliqni natural shaklga, ya’ni mahsulot ko‘rinishida olinadigan soliq bilan almashtirdi va mohiyatan quloq xo‘jaliklarini cheklash hamda siqib chiqarish xususiyatini davom ettira boshladi. Dekret dehqon xo‘jaliklarining me’yorga solinmagan, ehtiyojdan ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarini o‘z xohishiga ko‘ra tasarruf etish huquqiga asoslangan edi. Dekretda 1918-yil oxirigacha o‘rtahol dehqonlar va kambag‘al xo‘jaliklarga nisbatan mahsulot ayirboshlash tartibi saqlanishi ko‘rsatib o‘tildi [5].

Sovet mamlakatida qishloq xo‘jalik kommunalari va sovxozlarni tezlik bilan tashkil etish tendensiyasi 1918-yil dekabr oyida bo‘lib o‘tgan yer bo‘limlari, kambag‘allar komitetlari va kommunalarning I Butunrossiya syezdidan keyin avj oldi. Mazkur syezdda qabul qilingan “Yerdan foydalanishni kollektivlashtirish to‘g‘risida”gi rezolyutsiyada kollektiv xo‘jaliklar (qishloq xo‘jaligi artellari, kommuna va TOZlar)ni tashkil etish zarurati va imkoniyatlari bo‘yicha tavsiyalar ilgari surilgan edi. Syezd barcha mahalliy yer

bo‘limlarini yerga kollektiv bo‘lib ishlov berish usullarini hayotga keng targ‘ib etish va amalga oshirishga da’vat etdi, bu borada Yer ishlari komissarligiga ham “barcha mehnatkash dehqonlarni zudlik bilan yerdan umumlashgan holda foydalanishga o‘tish” yuzasidan murojaat yo‘lladi [6. B. 15].

Syezd tomonidan berilgan tavsiyalar Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komitetining 1919-yil 14-fevraldagi “Sotsialistik yer tuzish ishlari to‘g‘risida va sotsialistik yerdan foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida Qoidalar” nomli yangi qonuniy hujjatiga asos vazifasini bajardi [7. B. 26].

Yangi qonunda sovet davlatining agrar siyosatidagi asosiy yo‘nalish quyidagicha ko‘rsatib o‘tildi: “Kishining kishi tomonidan har qanday ko‘rinishda ekspluatatsiya qilinishini batamom yo‘q qilish uchun, qishloq xo‘jaligini sotsialistik asosda, fan va texnikaning barcha yutuqlarini qo‘llagan holda tashkil etish, mehnatkashlar ommasini sotsialistik ruhda tarbiyalash uchun, shuningdek, proletariat va qishloq kambag‘allarini o‘zaro birlashtirish va ularning kapitalizmga qarshi kurashini uyushtirish uchun yerdan foydalanishning yakka xo‘jalik shaklidan hamkorlik, kollektiv shakllariga o‘tish zarur. Yirik sovet xo‘jaliklari, kommunalar, yerga birgalikda ishlov berish hamkorliklari (TOZ) va kollektiv xo‘jalikning boshqa shakllari ushbu maqsadga erishishning eng yaxshi vositalari hisoblanadi. Shu boisdan yerdan yakka holda foydalanishning barcha ko‘rinishlarini umrini yashab bo‘lgan, o‘tkinchi bir shakl sifatida baholash maqsadga muvofiqdir” [2. B.71].

Yuqorida keltirilgan parchadan ma’lum bo‘ladiki, “Qoidalar”da yerdan yakka holda foydalanish o‘tkinchi bir narsa sifatida baholanib, kelgusida qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ilg‘or usuli sifatida kollektiv xo‘jaliklarni tashkil etish istiqbollari belgilangan. Lekin bu yangi qonunda davlat va kollektiv xo‘jaliklar shakllariga o‘tish muddati ko‘rsatilmagan edi.

1918-yil dekabr oyida bo‘lgan yer bo‘limlari, kambag‘allar komitetlari va kommunalarning Butunrossiya I syezdida qatnashgan ayrim delegatlar yerdan foydalanishda kollektiv xo‘jalikning eng qulay va ilg‘or shakli sifatida qishloq xo‘jalik kommunalarini ma’qullaganlar. Umuman, ushbu syezddan keyin Yer ishlari komissarligi qishloq xo‘jaligida kollektiv xo‘jaliklarning eng sodda shakllarini tuzishga ko‘proq e’tibor qarata boshladi. Bu hol yer organlarining strukturasida ham o‘z aksini topib, kommuna bo‘limlari kollektiv xo‘jaliklar bo‘limi sifatida qayta tashkil etildi [8. B.74].

Umuman, yerdan foydalanishda kollektiv xo‘jalik shakllarini joriy etish 1918-yildanoq amalga oshirila boshlangan, kollektiv xo‘jaliklarning turli shakllari – qishloq xo‘jalik artellari, TOZ, kommunalar tashkil etish tajribalari sovet davlatining barcha mintaqalarida ko‘zga tashlana boshlagan edi. Sovet hokimiyatining ilk davrlaridagi agrar va, umuman, “sotsialistik” iqtisodiy siyosatga o‘tish “harbiy kommunizm” deb atalgan, jamiyat hayotida keskin siyosiy-iqtisodiy choralar joriy etilgan sharoitda amalga oshirildi.

1919-yil 31-oktyabrda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Komiteti “Kambag‘allar uyushmalari to‘g‘risidagi Nizom”ni ishlab chiqib, tasdiqladi. Unda “qishloqda yersiz va kam yerli kambag‘al (yerni o‘z mehnati bilan ishlayotgan) dehqonlarni bir maqsad yo‘lida uyushtirish va birlashtirish zarur” ekani, “qishloq boylari va quloqlarga qarshi shafqatsiz kurash olib borishda kambag‘allar komitetlari qishloq mehnatkashlarining jangovar organi bo‘lib xizmat qilishi kerak”ligi ta’kidlandi [9]. Kambag‘allar uyushmalari tarkibiga nafaqat kambag‘al dehqonlar, balki qishloqdagi o‘rtahol dehqonlar, hunarmand-kosiblar ham kirishi mumkinligi tavsiya etildi. Bu orqali kompartiyaning 1919-yil martdagi VII syezdida qabul qilingan kambag‘al va o‘rtahol dehqonlar o‘rtasida ittifoq tuzish to‘g‘risidagi partiya siyosatini amalga oshirish ko‘zda tutilgan edi.

1920-yilda qishloqda yollanma mehnat qonunan taqiqlandi, savdo-sotiq ishlari ham noqonuniy deb topila boshlandi. Dehqon xo‘jaliklarida, qishloq sanoat korxonalarida ishchilarni yollash, shuningdek, savdo va sanoat korxonalarining holatini statistik aniqlash jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi va har doim ham muvaffaqiyatli, to‘g‘ri bo‘lmadi. Bunday taqiq va cheklovlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi, mamlakatning barcha hududlarida ekin maydonlari kamayib, hosildorlik tobora pasaya boshladi.

1920-yilning kuz-qish mavsumida qishloq xo‘jaligi ekinlari ekishning kamayishiga va hosildorlikning pasayib ketishiga qarshi kurashish chora-tadbirlari masalasini Markazdagi va joylardagi sovet hokimiyati qizg‘in muhokama qila boshladi. Munozaralar jarayonida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga davlat aralashuvini va dehqon xo‘jaliklarini davlat tomonidan tartibga solishni yanada kuchaytirish zarurligi haqidagi fikr ustunlik qildi [10. B. 213]. Bu g‘oya 1920-yil dekabr oyida bo‘lgan VIII Butunrossiya Sovetlari syezdining “Dehqonlar qishloq xo‘jaligini mustahkamlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida qonuniy ifodasini topdi. Qarorda “qishloq xo‘jaligini to‘g‘ri yuritish dehqonlar ommasiga davlat tomonidan yuklangan katta mas’uliyat” ekani e’lon qilindi [11. B. 136]. Dehqonlar davlat tomonidan belgilangan rejaga muvofiq ravishda ekin ekishga majbur edi, bu ular zimmasiga davlat oldida bajarishlari shart bo‘lgan majburiyat sifatida yuklatildi. Dehqonlarning urug‘lik zaxiralari umumdavlat urug‘chilik fondiga aylantirildi. Shu bilan birga, qarorda “xo‘jalik yuritishda alohida o‘rnak ko‘rsatgan, mehnatsevarligi bilan ajralib

turadigan, ekin ekish rejalari va yerni qayta ishlashni yaxshilash qoidalarini aniq bajarish orqali katta muvaffaqiyatlarga erishgan" qishloq jamoalari va yakka tartibdagi dehqonlar uchun mukofotlar belgilandi [11. B. 140].

1920-yillarning boshiga kelib, sovet hokimiyati qishloqda sinfiy tabaqalanishni to'la amalga oshirish imkonsiz ekanini tushunib etdi. Turkiston Respublikasining oliy partiya rahbarlari bu holatni tan olib, syezd rezolyutsiyalarida "aholining asosiy qismi... hali ham yirik savdogarlar, yarim krepostnoy-yer egalari va alohida urug' zodagonlari – boylar ta'siri ostida bo'lib, ularning kishanlarini uzib tashlashda ojizlik qilinmoqda" deb ta'kidlagan edilar [12. B. 82].

Turkiston o'lkasidagi musulmon siyosiy tashkilotlari dastlabki kunlardanoq bolsheviklarning yerlarni ijtimoiylashtirish g'oyasiga yakdil holda qarshi chiqib, yerga bo'lgan xususiy mulkchilikni saqlab qolish, yer va suvga bo'lgan masalalarni shariat qoidalari asosida hal qilish zarurligini ilgari surgan edilar. Ularning bu masalalardagi qat'iy yondashuvi 1917-yil Oktyabr to'ntarishidan keyin ham o'zgarmadi [13. B. 577].

1917-yilning 9-dekabrida Turkiston o'lkasi Yer ishlari xalq komissarligi yer oldi-sotdisini taqiqlash to'g'risida ko'rsatma beradi. Tegishli hududning ishchi, soldat, dehqon va musulmon deputatlari sovetlari ruxsati bilan yerni bir yildan uzoq bo'lmagan muddatga ijaraga berish qonuniylashtirildi. Shuningdek, o'lka Xalq Komissarlari Soveti "bo'lajak ijtimoiylashuvni e'tiborga olgan holda" yerlarni sotish, sotib olish va garovga qo'yish bo'yicha barcha ko'rinishdagi bitimlarni taqiqladi [14. B. 81–82]. Mazkur ko'rsatmalar, birinchi navbatda, dehqonlarning badavlat qismiga qarshi qaratilgan bo'lsa-da, ular qishloqning boshqa ijtimoiy qatlamlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Chunki kambag'al dehqonlar ham, o'rtahol dehqonlar ham ko'pincha yer sotib olish, yer sotish va yerni ijaraga olish bo'yicha bitimlarga murojaat qilganlar.

Sovet hukumatining agrar masalani hal etish bo'yicha rejalari amalga oshirilishi boshidanoq dehqonlar ommasining qattiq qarshiligiga duch keldi. Yer ishlari komissarligining qishloqlarga yuborilgan mas'ul vakillari dehqonlarning kuchli noroziligiga, hatto qurolli qarshilik ko'rsatishiga duch keldi [15]. Dehqonlar ommasining bunday qarshiligi mahalliy sovet hokimiyatiga yer masalasida shoshma-shosharlik qilmaslik kerakligini ko'rsatdi. Shu boisdan ham sovet rahbariyati Turkistonda faqat yirik yer egalariga tegishli yerlarni milliylashtirish bilangina cheklandi [16. B.18–20].

Yersiz va kam yerli kambag'al dehqonlar yirik yer egalariga tegishli yer-mulklarning natsionalizatsiya qilinishidan unchalik foyda ko'rmadilar. Chunki musodara qilingan bu yer-mulklar shaxsiy foydalanish uchun yakka dehqon xo'jaliklariga berilmadi, bu yerlarda asosan turli shakllardagi kollektiv xo'jaliklar (kommuna, artel, sovxoz) tashkil etilgan edi. Sovet hukumati bu kabi xo'jaliklarga yakka xo'jaliklarga nisbatan ancha ustunlik berdi. Biroq ko'pgina unumdor yerlarning kollektiv xo'jaliklarga berib qo'yilishi oxir-oqibatda ishlab chiqarishning barbod bo'lishiga olib keldi. Bu kollektiv xo'jaliklarda ishlab chiqarish faoliyati yo'lga qo'yilmagani sababli ham Turkiston Respublikasi hukumati ilgariroq natsionalizatsiya qilingan bog'lar va uzumzorlarni avvalgi egalariga qaytarish to'g'risida ko'rsatma berishga majbur bo'ldi [17. B. 29].

"Boy-quloq" xo'jaliklaridan musodara qilingan yerlarning ma'lum bir qismigina yersiz, kam yerli dehqonlarga teng asoslarda, mehnat me'yorlari bo'yicha foydalanishlari uchun taqsimlab berildi [18. B. 5–6]. O'lkadagi sovet yer organlari badavlat dehqon xo'jaliklaridan yerlarni haqini to'lamasdan, majburlash yo'li bilan tortib oldilar. Shu sababli ham yerlarni "ijtimoiylashtirish" qishloqning badavlat, o'ziga to'q qatlamlarining qattiq qarshiligiga uchradi, o'z navbatida bu chora kambag'al, o'rtahol dehqonlarning ko'pchilik qismi tomonidan ham ma'qullanmadi. Chunki sovet hokimiyatining xususiy yerga nisbatan qo'llayotgan chora-tadbirlari, ularning nazdida, shariat qonun-qoidalariga zid edi.

Yer islohotining amalga oshirilishi "boy" xo'jalik toifasiga kiritilgan o'n minglab qishloq aholisi uchun haqiqiy fojiaga aylandi. Yerlarni badavlat dehqonlardan hech qanday to'lovsiz, qishloq xo'jalik asbob-uskunalari, ish hayvonlari bilan birga zo'rlik bilan tortib olib, yersiz, kambag'al dehqonlarga mehnat me'yorlari asosida foydalanishga berish orqali Sovet hukumati qishloqning kambag'al qatlamlarini o'z tomoniga og'dirib, ulardan qishloqdagi hokimiyatini mustahkamlashda tayanch sifatida foydalanmoqchi bo'lgan edi.

Sovet hukumati tomonidan qishloq xo'jaligini "qayta tashkil etish" bo'yicha favqulodda shoshma-shosharlik va qat'iylik bilan amalga oshirilgan choralar Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligining ahvoliga halokatli ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa, paxtachilik katta zarar ko'rdi. Paxtachilikka birinchi jiddiy zarba 1918-yil 26-fevraldagi dekret bilan berilgan, unga ko'ra o'lkadagi barcha paxta zaxiralari davlat foydasiga musodara qilinishi kerak edi. Dekret qat'iy choralar bilan amalga oshirildi, zero, dekretda "qarshilik qilgan paxta egalariga joyida otib tashlashgacha bo'lgan choralar qo'llansin" deyilgan edi [19. B. 14].

Bu va shunga o'xshash dekret-qarorlar dehqonlar ommasida sovet hukumatiga qarshi ishonchsizlik uyg'otdi, ular aslida bu tuzumdan hech qanday

yaxshilik kutib bo‘lmasligiga, dehqonlar yetishtirgan paxtani hokimiyat istagan vaqtda zo‘rlik bilan tortib olishi mumkinligiga amin edilar. Qolaversa, 1918-yilda paxta ekiladigan maydonlarning keskin darajada – 1917-yildagi 340 ming desyatinadan 80 ming desyatinaga qisqarib ketganligi ham bejizga emasdi [19. B. 141–143]. Ayni paytda paxtaning gektar boshiga hosildorligi ham kamayib ketdi, bu, asosan, sifatli amerika paxta navlarining past sifatli tola beradigan mahalliy navlar bilan almashtirilishi tufayli sodir bo‘ldi. Paxta hosildorligi 1916-yildagi har gektar yerdan 70 puddan 1920-yilda 25 pudgacha kamaydi [20. B. 28]. Qishloq xo‘jalik inqirozi Turkiston o‘lkasidagi boshqa ekin turlari yetishtirishda ham ko‘zga tashlandi. 1920-yilda yalpi ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining qiymati birinchi jahon urushigacha bo‘lgan holatning 28,7 foizini tashkil qildi, jumladan, oziq-ovqat ekinlarida 21,8 foizni, paxtachilikda esa bor-yo‘g‘i 6 foizni tashkil qildi [21. B. 26].

Sovet hukumati tomonidan amalga oshirilgan rekvizitsiyalar tufayli qishloq xo‘jaligidagi inqiroz va dehqonlarning moliyaviy ahvoli yanada og‘irlashdi. Turkistonda sovet hokimiyatining dastlabki uch yilida dehqon xo‘jaliklari va ularda mehnat qilayotgan erkaklar soni 15 foizga kamaydi. Umumiy vaziyat 1917–1920-yillarda, ayniqsa, ocharchilik tufayli yanada og‘irlashdi. Ocharchilik yuz minglab turkistonliklarning, birinchi navbatda dehqonlarning hayotiga zomin bo‘ldi. Turkistonda yetishtirilayotgan g‘alla bu yerdagi aholini non bilan ta’minlashga yetmas edi, uning taqchilligi tobora o‘sib borib, 1917-yilda 58 million pudga yetdi [22. B. 96]. G‘alla taqchilligi Rossiyadan keltirilayotgan g‘alla hisobiga birmuncha qoplangan bo‘lsa-da, Rossiya markazida boshlanib ketgan fuqarolar urushi bu g‘allani ham to‘xtatib qo‘ydi. G‘alla taqchilligidan, ayniqsa, kambag‘al dehqonlar, paxtakor va chorvador xo‘jaliklar og‘ir ahvolga tushib qoldi. Ocharchilik ko‘chmanchi aholiga ham og‘ir ta’sir ko‘rsatdi, bu xo‘jaliklar o‘zlari g‘alla yetishtirmas, zarur g‘allani o‘troq aholidan chorva hayvonlari va chorva mahsulotlariga ayirboshlar edilar. 1919-yilning bahoriga kelib Turkistonda kamida yarim million kishi ochlikdan aziyat chekardi [23. B. 149].

Umuman, sovet davlatining 1917-yildan 1921-yilgacha bo‘lgan davr oralig‘idagi agrar siyosati asosan mulkdorlar qatlamiga qaratildi va ularga qarshi kurash turli ko‘rinishlarda olib borildi. Yirik yer egaligining tugatilishi Turkiston o‘lkasida ham qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning barbod bo‘lishiga olib keldi. Shu jihat e’tiborliki, bolsheviklar tomonidan 1919–1920-yillarda amalga oshirilgan “harbiy kommunizm” siyosatidan faqat “boy-quloq” xo‘jaliklargina emas, balki o‘rtahol dehqonlar ham jabr ko‘rdilar.

Adabiyotlar:

1. Декреты Советской власти. Том 1. 25 октября 1917 г. – 16 марта 1918 г. – Москва: Госиздат политической литературы, 1957. – 626 с.

2. *Гимпельсон Е.Г.* «Военный коммунизм»: политика, практика, идеология. – Москва: Мысль, 1973. – 296 с.

3. *Голованов А.А*. Крестьянство Узбекистана: эволюция социального положения. 1917–1937 гг. – Ташкент: Фан, 1992. – 162 с.

4. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-29-фонд, 3-рўйхат, 1355-иш.

5. Декрет ВЦИК от 30 октября 1918 года “Об обложении сельских хозяев натуральным налогом в виде отчисления части сельскохозяйственных продуктов” [Электронный ресурс]. URL: https://www.libussr.ru/doc_ussr/ussr_384.htm (Дата обращения: 17.01.2024).

6. Труды I Всероссийского съезда земотделов, комитетов бедноты и коммун. Вып. 1. – Москва, 1919. – 122 б.

7. *Кабанов В.В.* Крестьянское хозяйство в условиях “военного коммунизма”. / Отв. ред. В.П. Данилов. – Москва: Наука, 1988. – 302 с.

8. История крестьянства СССР. История Советского крестьянства. В 5 томах. Том 1. Крестьянство в первое десятилетие Советской власти 1917–1927. / Отв. ред. Г.В. Шарапов. – Москва: Наука, 1986. – 456 с.

9. Известия (Ташкент). 1919 г. 30 ноября.

10. *Поляков Ю.А*. Переход к нэпу и советское крестьянство. – Москва: Наука, 1967. – 511 с.

11. Съезды Советов в документах. 1917–1936 гг. Том 1. – Москва, 1959. – 574 с.

12. Коммунистическая партия Туркестана в резолюциях съездов и конференций. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – 312 с.

13. Победа Советской власти в Средней Азии и Казахстане. / Глав. ред. И.И.Минц. – Ташкент: Фан, 1967. – 771 с.

14. *Аминова Р.Х.* Аграрная политика советской власти в Узбекистане (1917–1920 гг). – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1963. – 344 с.
15. Наша газета. 1918 г. 11 января.
16. ЎзМА, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 225-иш.
17. ЎзМА, Р-17-фонд, 3-рўйхат, 1435-иш.
18. ЎзМА, Р-17-фонд, 3-рўйхат, 1351-иш.
19. ЎзМА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 49-иш.
20. ЎзМА, Р-27-фонд, 1-рўйхат, 668а-иш.
21. *Алимов И.А.* Узбекское дехканство на пути к социализму. (Социально-экономические преобразования в узбекском кишлаке в 1921–1925 гг). – Ташкент: Узбекистан, 1974. – 239 с.
22. ЎзМА, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 366-иш.
23. ЎзМА, Р-17-фонд, 1-рўйхат, 11-иш.

AGRICULTURAL POLICY IN THE FIRST YEARS OF SOVIET AUTHORITY IN TURKESTAN AND ITS FEATURES

D.R. Akhmedov

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 3 (79). 29-35.
Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: agrarian policy, agriculture, “war communism”, food appropriation, nationalization, food dictatorship, tax in kind, agricultural artel, commune, cotton growing, famine, committee of the poor.

The foundations of the agrarian policy of the Soviet government were put on the agenda for the first time at the II session of the All-Russian Soviet, held on October 25-27, 1917, where the decree “On Land” was adopted. According to this decree, it was indicated that the landlord’s land, the land belonging to the church, monastery and similar institutions, along with all their buildings and facilities, would be given to the peasants for free use.

The “Basic Law on Land Socialization” adopted on January 27, 1918 officially approved the establishment of a state monopoly on grain and grain products. The dictatorship of the proletariat was based on austerity measures, and the grain monopoly was directed against urban and rural entrepreneurs.

With the introduction of the “food dictatorship” by the Soviet government in May 1918, private trade in grain and bread products was banned. The Bolshevik authorities, with the help of the poor’s committees and food work squads established in connection with the food dictatorship, began to forcibly confiscate grain reserves belonging to peasant farms in cities and villages. With this, the activities of the “kulak” layer of entrepreneurs in the village were severely affected. At the same time, confiscation was applied not only to “kulak” farms, but also to middle-class farmers who had grain reserves.

On October 31, 1919, the Central Executive Committee of the Turkestan ASSR developed and approved the “Regulation on Associations of the Poor”. It was emphasized that “it is necessary to organize and unite the poor peasants who are landless and with little land in the village towards a common goal” and that “the committees of the poor should serve as a fighting body of the rural workers in the brutal struggle against the rich and kulaks.” It was suggested that not only poor peasants, but also middle-class peasants and artisans in the village may enter into the composition of the associations of the poor.

On December 9, 1917, the People’s Commissariat of Land Affairs of Turkestan issued an instruction to prohibit the sale of land. It was legalized to lease land for a period not longer than one year with the permission of the Soviets of Workers, Soldiers, Peasants and Muslim Deputies of the respective area. Also, the Council of People’s Commissars of the country banned all forms of land sale, purchase and mortgaging transactions “taking into account future socialization”. Although these instructions were primarily directed against the wealthy part of the peasantry, they had a significant impact on other social strata of the village as well.

The measures taken by the Soviet government to “reorganize” agriculture with extreme haste and

determination had a disastrous effect on the state of agriculture in Turkestan, especially the cotton industry suffered a lot. Cotton yields fell from 70 bushels per acre in 1916 to 25 bushels in 1920. The agricultural crisis was also noticeable in the cultivation of other types of crops in the territory of Turkestan. In 1920, the value of gross agricultural output was 28.7 percent of the pre-World War I level.

References:

1. (1957) Dekrety Sovetskoj vlasti. Tom 1. 25 oktyabrya 1917 g. – 16 marta 1918 g. [Decrees of the Soviet government. Vol. 1. October 25, 1917 - March 16, 1918]. Moscow: Gosizdat politicheskoj literatury.

2. Gimpelson, E.G. (1973) «Voennyj kommunizm»: politika, praktika, ideologiya ['War communism': politics, practice, ideology]. Moscow: Mysl.

3. Golovanov, A.A. (1992) Krestyanstvo Uzbekistana: evolyuciya socialnogo polozheniya. 1917–1937 gg. [The peasantry of Uzbekistan: the evolution of social status. 1917-1937]. Tashkent: Fan.

4. O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA) [National archive of Uzbekistan (NA of Uz]. Fund R-29, List-3, Case-1355.

5. Dekret VCIK ot 30 oktyabrya 1918 goda "Ob oblozhenii selskih hozyaev naturalnym nalogom, v vide otchisleniya chasti selsko-hozyajstvennyh produktov" [Decree of the All-Russian Central Executive Committee of October 30, 1918 'On imposing a tax in kind on rural owners in the form of deductions of part of agricultural products']. [Online]. URL: https://www.libussr.ru/doc_ussr/ussr_384.htm (Date of Access: 17.01.2024)

6. (1919) Trudy I Vserossijskogo syezda zemotdelov, komitetov bednoty i kommun [Proceedings of the First All-Russian Congress of Land Departments, Committees of the Poor and Communes]. Vol. 1. Moscow.

7. Kabanov, V.V. (1988) Krestyanskoe hozyajstvo v usloviyah "voennogo kommunizma" [Peasant farming under the conditions of 'war communism']. Moscow: Nauka.

8. Sharapov, G.V. (ed.) (1986) Istoriya krestyanstva SSSR. Istoriya Sovetskogo krestyanstva [History of the peasantry of the USSR. History of the Soviet peasantry]. Krestyanstvo v pervoe desyatiletie Sovetskoj vlasti 1917–1927. [Peasantry in the first decade of Soviet power 1917-1927]. In 5 volumes. Vol.1. Moscow: Nauka.

9. (1919) Izvestiya [News]. (Tashkent). November 30.

10. Polyakov, Yu.A. (1967) Perekhod k nepu i sovetskoe krestyanstvo [The transition to NEP and the Soviet peasantry]. Moscow: Nauka.

11. (1959) Syezdi Sovetov v dokumentah. 1917–1936 gg. [Congress of Soviets in documents. 1917-1936]. Vol. 1. Moscow.

12. (1988) Kommunisticheskaya partiya Turkestana v rezolyuciyah syezdov i konferencij [Communist Party of Turkestan in resolutions of congresses and conferences]. Tashkent: Uzbekistan.

13. Mins, I.I. (ed.) (1967) Pobeda Sovetskoj vlasti v Srednej Azii i Kazahstane [Victory of Soviet power in Central Asia and Kazakhstan]. Tashkent: Fan.

14. Aminova, R.H. (1963) Agrarnaya politika sovetskoj vlasti v Uzbekistane (1917–1920 gg). [Agrarian policy of Soviet power in Uzbekistan (1917-1920)]. Tashkent: Publishing House of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR.

15. (1918) Nasha gazeta [Our newspaper]. January 11.

16. NA of Uz. Fund R-17, List-1, Case-225.

17. NA of Uz. Fund R-17, List-3, Case-1435.

18. NA of Uz. Fund R-17, List-3, Case-1351.

19. NA of Uz. Fund R-25, List-1, Case-49.

20. NA of Uz. Fund R-27, List-1, Case-668a.

21. Alimov, I.A. (1974) Uzbekskoe dekhkanstvo na puti k socializmu (Socialno-ekonomicheskie preobrazovaniya v uzbekskom kishlake v 1921–1925 gg) [Uzbek farmers on the path to socialism (Socio-economic transformations in an Uzbek village in 1921-1925)]. Tashkent: Uzbekistan.

22. NA of Uz. Fund R-17, List-1, Case-366.

23. NA of Uz. Fund R-17, List-1, Case-11.

Muallif haqida ma'lumot:

AHMEDOV Dilshodbek Rustambekovich – Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: dilshod_ahmedov@mail.ru